

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING O‘QIB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Ashurova Mubina Soyipovna

Andijon shahar 32- umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirishning bugungi kundagi holati va o‘qish savodxonligini shakllantirishning asosiy maqsad va vazifalari, shuningdek, maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini PIRLS xalqaro tadqiqotlariga tayyorlash jarayonlari va ularni o‘tkazish, matnlar bilan ishlash shuningdek, bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, bilim, ko‘nikma va malaka, og‘zaki va yozma nutq, PIRLS xalqaro baholash dasturi, o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyati, xorijiy tajribalar, ta‘lim sifatini baholash, o‘qish savodxonligini oshirishda ijodkorlik.

KIRISH

“Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq...” -degan fikrlarni aytib o‘tgan edilar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy metodikada o‘qish savodxonligini shakllantirish qanchalik dolzarb va ahamiyatli mavzu ekanligini hisobga olgan holda dissertatsiyamizning ushbu qismida ona tili va o‘qish savodxonligi

daralarida o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirishning mavjud holati qay darajada ekanligiga oid tadqiqotlarimiz natijalarini keltirib o‘tamiz. Qo‘yilgan maqsad asosida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining amaldagi davlat ta‘lim standartlari, O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilab berilgan vazifalar asosida yaratilgan ona tili va o‘qish savodxonligi faniga oid milliy o‘quv dasturi, darslik, o‘qituvchi kitobi singari metodik vositalar tahlili olib borildi. Bundan tashqari bugungi kunda o‘qish savodxonligi tushunchasi, uning ahamiyati, uni shakllantirish usullari haqidagi mavjud bilimlar qay darajada shakllanganligini sinovdan o‘tkazish uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘rtasida so‘rovnomalar tashkillashtirildi va tahlil qilindi. Shuningdek, ta‘lim sohasida o‘qish savodxonligini shakllantirish bilan bog‘liq metodik tadbirlar O‘zbekiston Respublikasining “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yilda qabul qilingan Qaroriga asosan 3-4 yildan beri tashkillashtirib kelinayotganligini inobatga olgan holda o‘quvchilarning ham mazkur ko‘nikmalari qay darajada shakllanganligini aniqlash maqsadida boshlang‘ich tajriba-sinov ishlarini olib bordik, natijalarni tahlil qildik, tegishli xulosalarni chiqardik. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining amaldagi davlat ta‘lim standartlarida aynan ona tili va o‘qish savodxonligiga oid malaka talablari emas, ona tili va o‘qish faniga oid malaka talablari keltirilganligi uchun ushbu malaka talablarning har birini alohida-alohida keltirib, ularda o‘qish savodxonligi bilan bog‘liq maqsadlar qanday mazmunda belgilab olinganligiga o‘z munosabatimizni bildiramiz. O‘qish savodxonligini shakllantirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad hamda ona tili fanini o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy maqsad bilan tanishar ekanmiz, ular ma‘lum ma‘noda o‘zaro hamohang ekanligiga amin bo‘ldik:

O‘QISH SAVODXONLIGI:

-jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati

MAQSAD:

1. Badiiy tajriba orttirish;
2. Axborotlarni o‘zlashtirish va undan foydalanish.

ONA TILI FANINI O‘QITISHDAN KO‘ZLANGAN MAQSAD:

O‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qila oladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mutaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish.

Ko‘rib turganingizdek, 2017-yilda qabul qilingan DTS da ona tili fanini o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy maqsadning muayyan jihatlar(kitobxonlik madaniyati shakllangan, mutaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan)i o‘qish savodxonligini shakllantirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad bilan mos kelishi belgilangan.

Ona tili fanini o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad asosida belgilab olingan vazifalarning ham ayrimlari ushbu ko‘nikmani shakllantirishga doir ta’lim mazmunini ishlab chiqish uchun qonuniy asos vazifasini o‘tay oladi:

-o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

-o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish.

Xuddi shu singari o‘qish fanini o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy maqsad va uning vazifalariga ham nazar tashlaymiz:

Ona tili faniga nisbatan o‘qish fanini o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, aynan o‘qish savodxonligini shakllantirishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlarning biri, ya’ni badiiy tajriba orttirish bilan juda mos (adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish) kelishini anglash mumkin. Ammo har ikkala fanning maqsadlari tahlil qilinganda o‘qish savodxonligini shakllantirishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlarning ikkinchisi, ya’ni axborotlarni o‘zlashtirish va undan foydalanish bilan bog‘liq jihat(axborot matnlari asosida o‘qish savodxonligini shakllantirish) ochiq holda qolganini ko‘rish mumkin. Shunga qaramay o‘qish fanining maqsadi asosida ushbu fanning oldiga qo‘yilgan vazifalar tahlili olib borilganida esa aynan axborotlar bilan ishlashga qaratilgan turli nutq uslublari ga oid

matnlar bilan ishlash vazifasi ham mavjud ekanligi (yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish) ushbu fanni o'qitish orqali o'quvchilarda o'qish bilan bog'liq ayrim ko'nikmalarni shakllantirishning imkoni borligini anglatadi. Har ikkala fanning o'z oldiga qo'ygan maqsadi va shu asosda belgilab berilgan vazifalari muayyan ma'noda funksional savodxonlik tarkibiga kiruvchi o'qish savodxonligini aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad bilan mos kelishi ko'rinib turibdi. Ammo ushbu maqsadga erishish, belgilangan vazifalar asosida o'quv dasturi va darsliklarni ham shu maqsadga xizmat qiladigan mazmunda yaratish ta'lim jarayonini tashkil etishning eng muhim qoidalaridan biri sanaladi. Shu maqsadda tadqiqotimiz davomida ona tili va o'qish faniga oid bo'lgan malaka talablari ichidan aynan o'qish savodxonligini shakllantirish bilan bog'liq bo'lganlarigagina e'tiboringizni qaratamiz. 2017-yilda qabul qilingan DTSda o'qib tushunish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi malaka talablari belgilab olingan.

Ona tili fani bo'yicha:

1. Nutqiy kompetensiya

A1

- berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna oladi;
- matnni tushunib o'qiy oladi.

A1+

- sodda matnning asosiy mazmunini tushunadi va tushuntira oladi;
- matn mazmunini tushunib ifodali o'qiy oladi.

O'qish fani bo'yicha:

1. Adabiy-nutqiy kompetensiya

A1

- ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, rivoyat, hikoyat, masal, xalq qo'shiqlari, hikoya, she'rlarni o'qib tushunadi va mazmunini qayta so'zlab bera oladi;

- yozma va bosma harflarni, ular ifodalaydigan tovushlarni to'g'ri talaffuz eta oladi;

- matnni gap ohangiga rioya qilgan holda aniq va ravon o'qiy oladi;

- bir daqiqada 50-55 soʻzni oʻqiy oladi;
- monologik va dialogik nutqda oʻz fikrini aniq ifodalay oladi;
- oʻrganilgan mavzular doirasida 5-6 gapdan iborat kichik ijodiy matn yoza oladi;
- maktab kutubxonasidan foydalana oladi;

A1+

- bir daqiqada 55-60 soʻzni oʻqiy oladi;
- asar qahramonlari, tabiat tasviri haqida 7-8 gapdan iborat kichik ijodiy matn yoza oladi;

2. Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

A1

- matndagi soʻz va gaplarning maʼnolarini tushuna oladi;
- asar mazmunidan taʼsirlana oladi;
- xalq ogʻzaki ijodi namunalari (ertak, topishmoq, maqol, masal, tez aytishni) farqlay oladi;

- oʻrganilgan asarlarning nomi, muallifi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi;
- asar qahramonlariga munosabat bildiradi;
- oʻqilgan asar mazmuniga oid savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

A1+

- mustaqil oʻqish uchun tavsiya etilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi, asar qahramonlariga munosabat bildiradi.

Barchamizga maʼlumki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi tizimi rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi farmonida “uzluksiz taʼlim mazmunini sifat jihatdan yangilash”, “oʻqitish metodikasini takomillashtirish, taʼlim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish” kabi vazifalar belgilab berilgan boʻlib, mazkur vazifalar asosida Ona tili fanidan Milliy oʻquv dasturini yaratish, buning uchun esa yetakchi olimlar tomonidan “Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida ona tili fanini oʻqitishni rivojlantirish konsepsiyasi” ishlab chiqildi. Shu asosda bugungi kunda ushbu milliy oʻquv dasturi asosida darsliklar (1-3-sinflar uchun “Ona tili va oʻqish savodxonligi”

darsligi), mashq daftari hamda o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar yaratilib, foydalanishga topshirildi. Bugungi kunda 1-3-sinf o'quvchilari aynan shu darsliklar asosida ta'lim olayotganligini hisobga olgan holda biz Milliy o'quv dasturida o'qish savodxonligini shakllantirish bilan bog'liq ta'lim mazmuni qay darajada yoritilganligi bilan tanishdik. Bu borada yurtimizda qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiyasidayasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin. Ushbu IEA tashkiloti 60 yildan ko'proq vaqt mobaynida ta'limni qiyosiy o'rganish sohasida yetakchi tashkilot bo'lib kelmoqda. Bu tashkilot ta'lim tizimida davlat siyosati va amaliyotning ta'sirini chuqurroq o'rganish maqsadida ta'lim sohasida keng miqyosli tadqiqotlar olib boradi va bu tadqiqotlar ta'lim jarayonlari va natijalarini ko'rib chiqib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi o'zaro bog'liq omillarni qiyosiy tahlil qiladi. Ushbu tadqiqot yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o'tkaziladi. Shuningdek, o'rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi.

PIRLS – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir. Shuningdek ushbu PIRLS tadqiqoti yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi. O'qish savodxonligi o'quvchilarning ilmiy va shaxsiy muvaffaqiyatini o'sishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, PIRLS ta'lim sohasida olib borilayotgan siyosatning muvaffaqiyatga ta'sirini baholash uchun qimmatli vosita hisoblanadi. O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan

qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qoʻllay olish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda maʼno hosil qila olish qobiliyati hamdir. Oʻquvchining matn bilan ishlashi jarayonida oʻquvchi va matn orasidagi muloqot orqali (shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) oʻquvchi maʼnoni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon konstruktiv inglizcha “construct” – yaratmoq deyiladi). Oʻquvchi bu jaraenning faol qatnashuvchisi boʻlib, maʼno yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali oʻqish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qoʻllaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda oʻquvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega boʻlishi mumkin. Bular anʼanaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli koʻrinishdagi yozma shakllarni ham oʻz ichiga oladi. Bugungi kunda aynan taʼlim tizimida ushbu tadqiqotlarni yanada rivojlantirish maqsadida taʼlim klasteriga asoslangan oʻzaro integratsiyalashgan taʼlim turlarini tatbiq qilish zarur. Zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda taʼlim va fan oʻrtasidagi tarqoqlik bugungi kunda uzluksiz pedagogik taʼlimni klaster rivojlanish modeliga oʻtkazish zaruratini taqozo etmoqda. Oʻquvchilarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yoʻnaltiruvchi taʼlim shakli, metod va vositalarining toʻgʻri tanlanishi dars jarayonini samarali, qiziqarli, bahs-munozaralarga boy boʻlishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi. Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qoʻllanilayotgan ilgʻor texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent – 2019.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq taʼlimi tizimida taʼlim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori. Toshkent – 2019.

3. Umumiy oʻrta taʼlimning ona tili fanidan davlat taʼlim standartlari va oʻquv dasturi. T.: 2017-yil, 6-aprel.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони. 2019 йил, 29 апрель.

5. Ona tili fani boʻyicha Milliy oʻquv dasturi, 2020-yil.

6. “Халқаро тадқиқотларда бошланғич синф ўқувчиларининг ўқиш саводхонлигини баҳолаш” (Бошланғич синф ўқитувчилари, методистлар ва соҳа мутахассислари учун методик қўлланма). Таълим инспекцияси ҳузуридаги Таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларни амалга ошириш миллий маркази. Тошкент, 2019 йил. 92 б.

7. Кузнецова М. И. “PIRLS 2021 халқаро солиштирма тадқиқоти доирасида ўқиш саводхонлигини шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари”. Таълимни ривожлантириш стратегиялари институти. Москва 2020й.

8. Koraev S.B., Kurbonova M.F. “Problems and ways to improve student learning competencies in primary education”. Academic research in educational sciences, Tashkent, 2020. Volume 1, ISSUE 4, pp 795-801.

9. Qorayev .B., Allayorova S.B. “Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish”. Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi 2021 й. ISSN: 2181-1776 132-137 b.

10. Qorayev .B., Allayorova S.B. “Boshlang'ich sinf o'quvchilarini pirls xalqaro baholash dasturi tizimiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari” Academic research in educational sciences, 2021й. 2(2), 443-448 b.